

**MASOFAVIY TA'LIMNING AFZALLIKLAR**

Rayimjonova Gulrux Rasuljon qizi
Ismonaliyeva Gullola Shuhratjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti talabalari

Aldashev Ilhomjon To'xtaboyevich

Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10283242>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-December 2023 yil

Ma'qullandi: 04- December 2023 yil

Nashr qilindi: 07- December 2023 yil

KEY WORDS

moslashuvchanlik, modullilik,
parallellik, keng qamrovlilik,
iqtisodiy tejamkorlik,
internatsionallilik, TV-texnologiya,
Keys-texnologiya, individuallik,
interaktiv.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ta'limda axborot texnologiyalarining o'rne, dars mashg'ulotlarida axborot texnologiyalarini qo'llash orqali dars sifati va yoshlarni IT sohasiga qiziqishlarini oshirish, undan tashqari ta'limda multimedia vositalarining afzalliklari va masofaviy ta'limning yoshlar uchun qulayligi tadqiq etiladi.

Hozirgi ta'lim jarayoniga an'anaviy tushunchalar qatorida yangi tushunchalar ham kirib kelmoqda. Bular ta'lim olishda bir qancha qulayliklar yaratmoqda. Bunday o'qitish tizimiga onlayn hamda oflayn ta'limni kiritishimiz mumkin. Quyida onlayn ta'limning imkoniyatlarini yoritib o'tamiz.

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim kompleksidir.

Masofaviy o'qitish masofaviy ta'lim kompleksidagi ilg'or jarayondir. Masofaviy o'qitishning va masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimining zarurligi va maqsadi mavjud.

Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'lim turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi:

Moslashuvchanlik – ta'lim oluvchiga o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta'lim olish imkoniyatining mavjudligi.

Modullilik – bir-biriga bog'liq bo'lmagan mustaqil o'quv kurslari to'plamidan-modullardan individual yoki guruh talabiga mos o'quv rejasini tuzish imkoniyatining mavjudligi.

Parallellik – o'quv faoliyatini ish faoliyati bilan parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyatining mavjudligi.

Keng qamrovlilik – ko'p sonli o'quvchilarning bir vaqtning o'zida katta o'quv (elektron kutubxona, ma'lumotlar va bilimlar bazasi va hokazo) zaxiralariga murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli o'quvchilarning kommunikatsiya vositalari yordamida o'zaro va o'qituvchi bilan

muloqotda bo'lish imkoniyati.

Internatsionallilik – ta'lim sohasida erishilgan jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati.

Keys-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, masofaviy ta'limda matnli, audiovisual va multimediali (keys) o'quv uslubiy materiallar majmuasi qo'llanishiga asoslangan.

TV-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, u talabalarga o'quv-metodik ma'lumotlarini televideniye vositasi yordamida yetkazishga xizmat qiladi va tashqi aloqali ixtiyoriy interaktiv usullardan biri bilan o'rnatishga asoslanadi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, masofadan o'qitish uchun talabalarga auditoriya va yotoqxona zarur emas. Masofadan o'qitishda moliyaviy xarajatlar, asosan, o'quv uslubiy materiallar tayyorlash uchun maxsus auditoriyalar uchun sarflanadi. Bu xarajatlarning asosiy qismi bu jarayonni tashkil etish bosqichida sarf etiladi. Keyinchalik moliyaviy xarajatlar kamayadi. Shuning uchun talabalar sonining oshishi bilan narx ham pasayadi. Masofadan o'qitishda asosiy e'tiborni o'quv uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratish darkor. Chunki o'quv uslubiy materiallarning sifati masofadan o'qitish sifatining eng asosiy omillaridan biridir. O'quv uslubiy material qanchalik tushunarli va sifatli bo'lsa, shunchalik u o'quvchiga foydali bo'ladi, ya'ni material uslubiy jihatdan puxta bo'lmog'i zarur.

O'qish tartibi quyidagicha: o'qituvchi kurs bilan tanishtiradi va topshiriqlar beradi. Siz ko'rsatilgan manbalar bilan ishlab topshiriqlarni bajarasiz va o'qituvchiga yuborasiz. O'qituvchi uni tekshirib javobni sizga qaytaradi. Zarur holda ko'rsatmalar beradi. Shu tartibda kurs mavzulari o'rganib chiqiladi. Muzokara, asosan, elektron pochta orqali amalga oshiriladi. Telefon tarmog'idan ham ba'zan foydalaniladi. Bosma o'quv materiallari pochta orqali yuboriladi. O'qish jarayonida talaba darsliklardan, elektron kutubxonalardan, elektron forumlardan foydalanadi. Bunda o'qish individual shaklda olib boriladi va o'qituvchi o'quvchining qobiliyati va xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitadi. Bu individuallik o'quvchida qiziqish uyg'otadi va uni o'qishda aktivlikka rag'batlantiradi.

Shuning bilan birgalikda ta'lim sifatini yaxshilash zarur. To'g'ri, ba'zilar innovatsion ta'lim usullari kirib kelmoqda deyishi mumkin. Lekin biz faqat masofaviy ta'limni nazarda tutaymiz. Darhaqiqat, bu gaplar qandaydir safsata yoki zerikishda yozilgan yoxud xohlagan odam bu haqida xohlagancha talqin qilib yozishi mumkin-ku degan xayolga borishingiz ham mumkin, lekin biz shu mavzuda olib borgan ishlarimiz natijasida ta'limning innovatsion rivojlantirishning bu usulini boshqalarga qaraganda ancha foydali va keng qamrovli deb o'ylaymiz. Misol tariqasida "Sahar online maktab"ni keltirishimiz mumkin. Bu maktab hozirda yurtimizdagi bilimli yoshlar mavjudligini, lekin ayrimlarining vaqti va imkoniyati yo'qligini hisobga olgan holda ta'limni kompyuterlashtirish bosqichida darslarni olib boradi. Chunki bilim olish uchun katta binolar shart emas, sifatli internet va bir necha ovoz yozish qurilmalari, o'qituvchi bo'lsa bas.

Masofaviy ta'lim shartnoma summasi kunduzgi ta'lim shartnoma summasi miqdoriga qaraganda ancha arzon. Undan tashqari boshqa ishda ishlab turib ham o'qishning iloji bor. Biz faqat ma'lum platformaga joylashtirilgan darslardan bilimlarni egallashimiz va belgilangan muddatda imtihonlarni topshirishimiz mumkin.

Masofaviy ta'lim uchun kurslarni tanlash ancha kengdir va siz poytaxt universitetining istalgan joyida bo'lishingiz mumkin. Masofaviy ta'limni Moskva davlat universiteti, MGIMO,

IBDA va boshqa ko'plab universitetlar taklif etadi. Uniweb saytida siz boshqa narsalar qatori yetakchi universitetlarning bepul ta'lim dasturlarini tanlashingiz mumkin. Shuningdek, ba'zi universitetlarda bepul sinov darslari o'tkaziladi.

Hech kim sizni chalg'itmaydi. Ta'lim jamoasi har doim ham o'rganishga ijobiy ta'sir ko'rstavermaydi va sinflar ko'pincha juda qulay emas. Masofaviy ta'lim bilan siz o'zingiz uchun qulay bo'lgan o'quv joyini tashkil etasiz.

Dastur individual bo'lishiga qaramay, siz maruzalarni tinglashingiz, topshiriqlarni bajarishingiz va ko'rib chiqish uchun yuborishingiz mumkin. Boshqa tomondan, siz juda qisqa vaqt ichida bilimga ega bo'lishingiz kafolatlanadi. Topshiriqlarni muvaffaqiyatli topshirish jarayonida sizga elektron diplom va sertifikat topshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta'lim tizimida darsliklar, qo'llanmalar yetishmasligi kabi muammolar bo'lmaydi. O'quvchi o'quv materialini elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoq orqali qabul qilib oladi, shu bilan birga ma'lum saytlarga obuna bo'lishi, ma'lumotlar bazasiga kirib o'zika kerakli axborotlarni olishi mumkin. Masofaviy ta'lim kamxarj va ko'p vaqt talab qilmaydigan, ilg'or texnologiyalarga asoslangan ta'lim tizimidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Talim jarayonini tashkil etishda metodlar va ularning imkoniyatlari I Aldashev, S Aldasheva - Journal of technical research and development, 2023
2. Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalarni o'rni M To'rayev, ST Aldasheva, IT Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023
3. o'quv jarayoniga media ta'limning integratsiyasi i Aldashev - Scientific journal of the Fergana State University, 2023
4. Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M.(2023). Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. Talqin va tadqiqotlar, 1(6).
5. Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности. Экономика и социум, (6 (73)), 341-344.
6. Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida qo'llanilishi. In international scientific and practical conference"
7. The time of scientific progress" (Vol. 2, No. 1, pp. 107-113). Mirzayevna, S. H., Muhammadaliyevna, A. S., & Qizi, O. M. O. (2022). Boshlang'ich Sinflarda Ta'lim Sifatini Oshirishda Aktdan Foydalanish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(13), 69-74.
8. Mirzaakbarov, D. D. (2021). DIRECTIONS FOR THE INTRODUCTION OF NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. Экономика и социум, (4-1), 211-214.
9. Mirzaakbarov, D. D. (2021). Directions for the introduction of new information technologies in education. Экономика и социум, (4-1 (83)), 211-214.
10. Media ta'limning o'quv jarayoniga tatbig'i I Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023
11. The importance of primary school teachers to use act in their activities T Tojiyev, I Aldashev - 2022
12. Talim jarayonini tashkil etishda metodlar va ularning imkoniyatlari I Aldashev, S Aldasheva - Journal of technical research and development, 2023
13. Turli sohalarida axborot texnologiyalarining tutgan roli S Madinabonu, A Ilhomjon - Научный Фокус, 2023
14. Zamonaviy texnologiyalarning hozirgi kundagi ahamiyati A Ilhomjon, A Gulira'no -



INNOVATIVE
ACADEMY